



NATIONAL-CULTURAL FORMATION OF ASSOCIATIVE PORTRAIT

Murodova Hafiza Muhammadjonovna

Kokand State University

10.00.01- 2nd year doctoral student in Uzbek language

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17151618>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

Associative portrait, national-cultural specificity, collective consciousness, ethnolinguistics, intercultural perception, linguistic associations.

ABSTRACT

This study explores the national-cultural specificity of associative portraits in linguistics, focusing on how linguistic associations reflect collective consciousness and cultural identity. Language, as both a means of communication and a repository of cultural heritage, preserves national traditions, values, and social practices. The research examines the associative responses of different linguistic communities to the stimulus word "monument," using data from the Slavic Associative Dictionary. Comparative analysis reveals both universal and culturally specific associations across Russian, Belarusian, Bulgarian, and Ukrainian speakers, where notions of memory, national heroes, and symbolic artifacts dominate. Further, an experimental associative test conducted in Yekaterinburg (2024) with 124 Russian participants investigated perceptions of the word "Uzbek." The associative field constructed from the responses highlights recurrent cultural images: hospitality, cuisine (pilaf, manti, fruits), national symbols (cotton, skullcap, carpet), and geographic references (Samarkand, Bukhara, Tashkent). These repeated associations formed the basis for reconstructing the "associative portrait" of Uzbeks in Russian collective consciousness. The findings demonstrate that associative portraits are not neutral but shaped by cultural stereotypes, national identity, and shared socio-historical experiences. Ultimately, associative portraits provide valuable insights into how one nation conceptualizes another, reflecting intercultural perception, ethnolinguistic features, and the interplay of language and culture.



ASSOTSIATIV PORTRETNING MILLIY-MADANIY XOSLANISHI

Murodova Hafiza Muhammadjonovna

Qo'qon davlat universiteti

10.00.01- O'zbek tili 2-kurs tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17151618>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

Assotsiativ portret, milliy-madaniy o'ziga xoslik, jamoaviy ong, etnolingvistika, madaniyatlararo idrok, lingvistik assotsiatsiyalar.

ABSTRACT

Ushbu tadqiqot tilshunoslikdagi assotsiativ portretlarning milliy-madaniy o'ziga xosligini o'rganib, lisoniy assotsiatsiyalar jamoaviy ong va madaniy o'ziga xoslikni qanday aks ettirishiga e'tibor qaratadi. Til ham muloqot vositasi, ham madaniy meros ombori sifatida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy amaliyotlarni saqlaydi. Tadqiqot slavyan assotsiativ lug'atidan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda "yodgorlik" rag'batlantiruvchi so'ziga turli til jamoalarining assotsiativ javoblarini o'rganadi. Qiyosiy tahlil rus, belarus, bolgar va ukrain tillarida so'zlashuvchilarda ham universal, ham madaniy jihatdan o'ziga xos assotsiatsiyalarni ochib beradi, bu erda xotira, milliy qahramonlar va ramziy artefaktlar haqida tushunchalar ustunlik qiladi. Bundan tashqari, Yekaterinburgda (2024) 124 nafar rossiyalik ishtirokchi ishtirokida o'tkazilgan eksperimental assotsiativ testda "o'zbek" so'zi haqidagi tasavvurlar o'rganildi. Javoblar asosida tuzilgan assotsiativ maydon takroriy madaniy tasvirlarni ajratib ko'rsatadi: mehmondo'stlik, oshxona (palov, manti, mevalar), milliy ramzlar (paxta, do'ppi, gilam) va geografik ma'lumotlar (Samarqand, Buxoro, Toshkent). Bu takroriy assotsiatsiyalar rus jamoaviy ongida o'zbeklarning "assotsiativ portreti"ni qayta qurish uchun asos bo'ldi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, assotsiativ portretlar neytral emas, balki madaniy stereotiplar, milliy o'ziga xoslik va umumiy ijtimoiy-tarixiy tajribalar bilan shakllanadi. Oxir oqibat, assotsiativ portretlar madaniyatlararo idrok etish, etnolingvistik xususiyatlar, til va madaniyatning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi bir xalqning boshqa millatni qanday kontseptuallashtirishi haqida qimmatli tushunchalarni beradi.



Tilshunoslikda til birliklarining milliy-madaniy xoslanishi masalasi doimo dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Ushbu muammoning tadqiqi tilning millat madaniyati bilan aloqasini ochib berishga, til birliklarida milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar qay darajada aks etishini aniqlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, til millat madaniyatining ko'zgusi sifatida tavsiflanadi. Chunki til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki xalq madaniyatini tilda aks ettiruvchi, uni avlodlarga yetkazuvchi, kishilar o'rtasidagi madaniy aloqalarni amalga oshirishga, madaniy hamjihatlilikni ta'minlashga xizmat qiluvchi qurol sifatida ham ahamiyatlidir. Tilning bu kabi vazifalari uning madaniyat bilan doimo aloqada ekanligini asoslaydi.

Tilning madaniyat tashuvchisi ekanligi lisoniy assotsiatsiyalarda ham namoyon bo'ladi. Lisoniy assotsiatsiyalar bir-biri bilan assotsiativ bog'langan til birliklari bo'lib, ularning milliy-madaniy xususiyatga egaligi tilning ham madaniyligini ko'rsatadi.

Lisoniy assotsiatsiyalarning milliy-madaniy xoslanishini bir obyekt bo'yicha turli millat vakillarida hosil bo'lgan assotsiatsiyalar tahlili orqali asoslash mumkin. Ma'lumki, turli xalqlarning muayyan bir obyekt haqidagi bilim va tasavvurlari, unga bo'lgan munosabati bir-biriga mos kelishi yoki farqlanishi mumkin. Obyekt barcha uchun ma'lum bo'lgan doimiy, o'zgarmas xususiyatlarga ega bo'lganda kishilarning u haqidagi bilim va tasavvurlari bir-biriga mos keladi. Vaqt o'tib, obyektning belgi-xususiyatlari o'zgarishga uchrasa, kishilarning u haqidagi bilim va tasavvurlari ham o'zgaradi. Yoki obyektning kishilar uchun ma'lum bo'lmagan yangi qirralari ochilganda, kishilarning ushbu obyektga oid bilimlari boyib, tasavvurlari kengayishi mumkin.

Turli xalqlarning muayyan bir obyekt haqidagi tasavvurlari olamni o'ziga xos tarzda idrok etishi, ongi, dunyoqarashi, madaniyati kabilar bilan bog'liq holda ham turlicha bo'lishi mumkin. Umuman, nafaqat turli millat vakillari, balki bir millatga mansub kishilarning ham muayyan obyekt bo'yicha egallagan bilim va tasavvurlari bir-biriga muvofiq kelishi yoki farq qilishi mumkin. Bu holat ushbu predmetlar bo'yicha insonda yuzaga keladigan assotsiatsiyalarning ham aynan, o'xshash hamda farqli bo'lishiga olib keladi.

Tilshunoslikda yaratilgan assotsiativ lug'atlar asosida turli millat vakillarida bir obyekt bo'yicha hosil bo'lgan assotsiatsiyalarni qiyoslash, ularning bir-biriga muvofiqligi yoki farqli jihatlarini aniqlash va shu asosida millatning jamoaviy ongi, tafakkuri xususiyatlari, obyekt haqidagi bilim va tasavvurlari, qarashlari haqida aniq xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi. Quyida "Славянский ассоциативный словарь" da rus, belorus, bolgar va ukrain tillari egalari tomonidan *памятник/ помнік/ пометник/ пам'ятник* (yodgorlik) turtki so'ziga berilgan javob reaksiyalarini taqqoslaymiz¹. Qiyos uchun eng yuqori chastotali 3 ta javob reaksiyasi tanlandi:

rus tili egalari: **ПАМЯТНИК:** *Пушкину – 49, Ленину – 46, Пушкин – 26;*

belorus tili egalari: **ПОМНІК:** *пам'яць (xotira) – 55, магіла (qabr, do'r) – 27, герой (qaxramon) – 26;*

¹ Ushbu lug'at 1998-1999- yillarda 18-25 yoshlardagi rus, belorus, bolgar va ukrain talabalari ustida o'tkazilgan yozma assotsiativ tajriba materiallari asosida tuzilgan va 2004- yilda Moskvada chop etilgan. Assotsiativ tajribalarda har bir millatdan 500 tadan vakil qatnashgan.



bolgar tili egarlari: **пометник**: *камък (tosh, qattiq jins) – 42, спомен (xotira, esdalik) – 33, Левски, статуя (Levski, haykal) – 17;*

ukrain tili egarlari: **пам'ятник**: *Шевченку – 22, пам'ять (xotira) – 19, камін tosh, qattiq jins) – 14².*

Ko'rinadiki, belorus, bolgar, ukrainlar *помнік/ пометник/ пам'ятник* so'ziga nisbatan o'z tillarida *пам'яць (xotira) – спомен (xotira, ёд) – пам'ять (xotira)* javob reaksiyalarini berishgan. Bu ularning javob reaksiyalaridagi semantik muvofiqlikni ko'rsatadi. Yodgorlikning xotira bilan bog'liqligi har ikki millat vakillarida mazkur javob reaksiyalarini yuzaga keltirgan deb hisoblash mumkin.

Xuddi shunday, *пометник* so'ziga nisbatan bolgarlarda *камък (tosh, qattiq jins)*, ukrainlarda *камін (tosh, qattiq jins)* javob reaksiyalari hosil bo'lgan. Ushbu javob reaksiyalari ham semantik jihatdan bir-biriga muqobil. Mazkur javob reaksiyalari yodgorlik sinaluvchilarda marhum insonning qabri ustiga o'rnatiladigan ko'pincha marhumning imi sharifi, tug'ilgan va vafot etgan yili yoziladigan qabrtoshlarni yodga tushirganligini ko'rsatadi. Demak, yodgorlik haqidagi turli millat vakillarining umumiy bilim va tasavvurlari: har qanday yodgorlikning xotira, yod etish bilan aloqadorligi, yodgorlikning qabr ustiga o'rnatiladigan qabrtosh shaklida ham bo'lishi bir xil mazmundagi javob reaksiyalarining hosil bo'lishshiga turtki bergan.

Rus, belorus, bolgar va ukrain tili egalarining *памятник/ помнік/ пометник/ пам'ятник* so'ziga bergan javob reaksiyalarida milliy-madaniy xoslangan turli javob reaksiyalari ham kuzatiladi. Jumladan, rus tili egalarida *памятник* so'ziga nisbatan berilgan yuqori chastotali *Пушкину (49), Ленину (46), Пушкин (26)* javob reaksiyalari rus xalqining taniqli shoiri va siyosiy arbobi anglatishi sababli ham milliy-madaniy xoslangan javob reaksiyalari hisoblanadi.

Shuningdek, bolgar tili egarlari tomonidan *пометник* so'ziga berilgan *Левски (17)* javob reaksiyasi XIX asrda Bolgariyada turk usmoniylari hukmronligiga qarshi kurashgan inqilobchi, bolgar xalqining milliy qahramoni Vasil Levski (haqiqiy ism-familiyasi – Vasil Ivanov Kunchev)ni anglatadi. Ukrain tili egalarining *пам'ятник* turtki so'ziga bergan *Шевченку (22)* javob reaksiyasi esa mashhur ukrain adibini anglatadi. Demak, bolgar va ukrainlarning mazkur javob reaksiyalari milliy-madaniy pretsedent birliklarni aks ettirishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Turli millat vakillarida biror bir obyekt bo'yicha bir-biriga muvofiq kelmaydigan assotsiatsiyalarning yuzaga kelishida milliy ong va tafakkur ham muhim o'rin tutadi. Millatga xos ong va fikrlash tarzi assotsiatsiyalarning madaniyligini ta'minlaydi. Har bir inson muayyan madaniyat vakili ekan, olamni idrok etish va uni tilda aks ettirish jarayoniga madaniy subyekt sifatida yondashadi. Borliqqa milliy-madaniy yondashuv insonda muayyan obyekt bo'yicha hosil bo'ladigan assotsiatsiyalar xarakteriga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan bunday muhitda assotsiatsiyalar milliy-madaniy yondashuv natijasi sifatida yuzaga keladi.

Biror bir obyekt bo'yicha til egarlari assotsiatsiyalarining milliy-madaniy xoslanishi obyektning mazkur assotsiatsiyalarga asoslangan portretida ham namoyon bo'ladi.

² Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский, / Н.В.Уфимцева, Г.А.Черкасова, Ю.Н.Караулов, Е.Ф.Тарасов. – М., 2004. – С. 180-181.



Ushbu obyekt bo'yicha yuzaga keladigan assotsiatsiyalar ijtimoiy-madaniy muhit, milliy-madaniy qadriyatlar qurshovida yashayotgan milliy ong va tafakkur egasi bo'lgan inson tomonidan yuzaga kelishini inobatga olsak, bunday assotsiatsiyalar vositasida tasvirlangan assotsiativ portret ham milliy-madaniy xarakterda bo'ladi deb ayta olamiz. Zero, turli millat vakillarining muayyan bir obyektни idrok etishi va uni tilda ifodalashida farq kuzatilganidek, ushbu obyektning turli millat vakillari tomonidan tasvirlangan assotsiativ portretida ham milliy-madaniy farqlar kuzatilishi tabiiy. Bunday vaziyatda assotsiativ portret tasvirida ishtirok etgan milliy-madaniy xususiyatli assotsiativ birliklar, tasvir obyektiga nisbatan qo'llangan millatga xos baholash munosabati kabilar portretning milliy-madaniy xoslanishini ta'minlaydi.

Obyektning assotsiativ portreti tasvirida obyekt haqidagi birlamchi ilmiy manbalar, lug'at, ensiklopediyalarda qayd etilgan daliliy ma'lumotlar bilan birga, ommaviy axborot vositalaridagi turli xabarlar, kishilar orasida tarqalgan soxta dalillar ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, assotsiativ tasvir obyektini biror bir shaxs yoki millatdan iborat bo'lsa, ularning assotsiativ tasvirida mazkur shaxs yoki millat haqida jamoa ongidan o'rin olgan va xotirasida o'rnashgan ma'lumotlar, qarashlar, ushbu jamoaning shaxs yoki millatga nisbatan baho munosabati kabilar muhim o'rin tutadi. Bunday assotsiativ portret etnik tasavvurlarga asoslanganligi sababli ham milliy-madaniy xoslanganligi bilan ajralib turadi.

Millat assotsiativ portretining milliy-madaniy xoslanishini asoslash maqsadida quyida rus millatining o'zbeklar haqidagi assotsiatsiyalari va ular asosida yaratilgan assotsiativ portret xususiyatlarini yoritamiz.

Rus millati vakillarining o'zbeklar haqidagi tasavvurlarini o'rganish maqsadida 2024-yil sentabr oyida Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida 19-46-yoshlardagi millati va so'zlashadigan tili rus tili bo'lgan 124 ta (83 ta ayol, 41 at erkak) sinaluvchi ustida ruscha *узбек* so'zi bo'yicha yozma assotsiativ tajribada o'tkazildi. Sinaluvchilardan *узбек* so'ziga nisbatan xotirasida tiklangan faqat bitta javob reaksiyasini so'rovnomaga yozish so'raldi. Tajribada jami 124 ta javob reaksiyasi olindi va ular asosida *узбек* so'zining quyidagi assotsiativ maydoni hosil qilindi:

УЗБЕК – национальность (millat) **9**; плов (palov) **8**; дружный народ (inoq xalq) **5**; хлопок (paxta) **5**; Азия (Osiyo) **4**; ковёр (gilam) **4**; люди (odamlar) **4**; мигранты (mehnat muhojirlari) **4**; Самарканд (Samarqand) **4**; арбуз (tarvuz) **3**; гостеприимства (mehmondo'stlik) **3**; манты (manti) **3**; народ (xalq) **3**; тибетейка (do'ppi) **3**; фрукты (mevalar) **3**; архитектура (me'morchilik) **2**; Бухара (Buxoro) **2**; добрый народ (oqko'ngil xalq) **2**; иностранец (xorijlik) **2**; культура (madaniyat) **2**; нация (millat) **2**; семья (oila) **2**; солнце (quyosh) **2**; страна (mamlakat) **2**; студенты (talabalar) **2**; Ташкент (Toshkent) **2**; чайхана (choyxona) **2**; базар (bozor) **1**; богатая история (boy tarix) **1**; вкусная еда (mazali ta'om) **1**; восточная (sharqona) **1**; восточный рынок (sharq bozori) **1**; гастарбайтер (mehnat muhojiri) **1**; доброжелательное (oqko'ngil) **1**; добрые люди (mehribon odamlar) **1**; дыня (qovun) **1**; жара (issiq) **1**; искренный народ (samimiy xalq) **1**; косички на волосы (o'rilgan sochlar) **1**; купара (turshak) **1**; кухня (oshxona) **1**; мой дедушка (bobom) **1**; мой друг (do'stim) **1**; моя подруга (dugonam) **1**; Навруз (Navro'z) **1**; население (aholi) **1**; одежда (kiyim) **1**; приезжие (chetdan



kelganlar) 1; пустыня (cho'l) 1; родина (vatan) 1; СССР (SSSR) 1; студент (talaba) 1; сухофрукты (quruq mevalar) 1; тепло (issiq) 1; традиции (an'analar) 1; тюркоязычный народ (turkiy tilli xalq) 1; узбекская кухня (o'zbek oshxonasi) 1; улыбочивые (tabassumli) 1; хлеб (non) 1; чапан (chopon) 1; человек (odam) 1; шелковый путь (ipak yo'li) 1.

Ushbu assotsiativ maydonda jami javob reaksiyalari 124 tani tashkil qildi, ulardan takrorlangan javob reaksiyalari 27 ta, yakka javob reaksiyalari 35 ta, javob berilmagan holat kuzatilmadi. Demak, tajribada ishtirok etgan rus millati vakillari o'zbeklar haqida muayyan bilim va tasavvurga ega.

Assotsiativ maydondagi takrorlangan, ya'ni yuqori chastotali javob reaksiyalari asosida rus millati vakillari tasavvuridagi o'zbeklarning assotsiativ portretini hosil qilish mumkin. Chunki takrorlangan javob reaksiyalari jamoaviy xarakterda bo'lib, aynan ular jamoa ongi va tafakkuri xususiyatlarini ochib beradi, mazkur jamoaning o'zbeklar haqidagi bilim va tasavvurlarini umumlashtiradi.

Assotsiativ portretni hosil qilishda takrorlangan javob reaksiyalarining turtki so'z bilan sintagmatik xususiyati hamda matnni shakllantirish imkoniyatlari inobatga olinadi. Rus sinaluvchilari tomonidan taqdim etilgan yuqoridagi assotsiatsiyalarga asoslangan holda, ularning tasavvuridagi o'zbek millati assotsiativ portreti quyidagicha shakllantirildi:

Узбек – национальность, нация, народ, дружный народ, добрый народ. Узбек – это иностранец, люди, мигранты, студенты, семья. Узбек – (символ) гостеприимства. Узбек – это хлопок, тюбетейка и ковёр. Узбеки – (народ) Азии. Узбекская еда – это плов, манты. Узбекские фрукты – это арбуз, (и другие) фрукты. Города – Самарканд, Бухара, Ташкент. Узбек – это архитектура, культура и чайхана. Узбек(истан) – это (страна) солнца.

(O'zbek – millat, xalq, inoq xalq, oqko'ngil xalq. O'zbek – bu xorijlik(lar), odamlar, mehnat muhojirlari, talabalar, oila. O'zbek – mehmondo'stlik (timsoli). O'zbek – bu paxta, do'ppi, gilam. O'zbek(lar) – Osiyo (xalqi). O'zbek(lar) taomi – bu palov, manti. O'zbeklar mevasi – tarvuz va (boshqa) mevalar. Shaharlari – Samarqand, Buxoro, Toshkent. O'zbek – bu me'morchilik, madaniyat va choyxona. O'zbek(iston) – mamlakat, quyosh(li) (o'lka).

O'zbek millatining ushbu assotsiativ portretida rus xalqining milliy-madaniy jihatdan o'ziga xos yondashuvi, stereotipik qarashlari kuzatiladi. Jumladan, assotsiativ portretidagi “Узбек – национальность, нация, народ, дружный народ, добрый народ” tasviridagi *национальность, нация, народ* assotsiatsiyalari o'zbeklarning millat sifatida mansubligini e'tirof etish, ularga, avvalo, millat, xalq sifatida yondashuvini ko'rsatadi. *Дружный народ, добрый народ* javob reaksiyalari esa ushbu millatga berilgan ijobiy bahoni aks ettiradi. “Узбек – это иностранец, люди, мигранты, студенты, семья” ifodasi ayrim sinaluvchilarning o'zbeklarni xorijlik sifatida ko'rish, mehnat muhojirlari bo'lib faoliyat yuritayotganligi, ta'lim olayotganligi, oila bo'lib yashayotganliklari haqidagi qarashlari aks etgan. “Узбек – (символ) гостеприимства” ifodasi o'zbek xalqining mehmondo'st xalq ekanligi haqidagi stereotip qarashlarni aks ettiradi. “Узбек – это хлопок, тюбетейка и ковёр” tasvirida sinaluvchilarning o'zbeklarning ijtimoiy mehnat faoliyati, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar, ekin turi haqidagi bilimlari namoyon



bo'lgan. *“Узбеки – (народ) Азии”* ifodasi o'zbeklarning O'rta Osiyoda yashashiga ishora. *“Узбекская еда – плов, манты”* tasviri etnografik xususiyatga ega bo'lib, o'zbek millatining mashhur taomlari haqida ma'lumot beradi va ayrim sinaluvchilarda o'zbeklar mazali taom pishiradigan xalq sifatida tasavvur uyg'otishini anglatadi. *“Узбекские фрукты – это арбуз, (и другие) фрукты”* ifodasida o'zbek xalqining poliz mahsulotlari, mevalari tasvirlangan. *“Города – Самарканд, Бухара, Ташкент”* tasvirida o'zbeklarning shaharlari aks etgan. *“Узбек – это архитектура, культура и чайхана”* tasviri o'zbek xalqining boy arxitektura yodgorliklari, choyxonasi haqida ma'lumot beradi. *“Узбек(устан) – это (страна) солнца”* ifodasida o'zbeklarning o'z mamlakatiga egaligi, uning quyoshli yurt ekanligi tasvirlangan.

O'zbeklarning ruslar tasavvuridagi ushbu assotsiativ portretidan anglashiladiki, rus millati vakillari ongida o'zbeklar milliy-etnik millat sifatida, ijtimoiy-maishiy, axloqiy-ma'naviy qiyofalarda, tarixiy makoni, milliy madaniyati, taomlari bilan ajralib turuvchi xalq obrazida gavdalangan. Assotsiativ portretida ruslarning jamoaviy ongiga xos quyidagi milliy xususiyatlar namoyon bo'lgan:

- 1) ruslar o'zga xalqlarga millat, yurtiga davlat sifatida qarashadi;
- 2) ruslar o'zga millatdagi milliy xususiyatlarga alohida e'tibor qaratishadi;
- 3) rus millati vakillari uchun o'zga millatning o'ziga xos ma'naviy qiyofasi, axloqi muhim;
- 4) rus millati vakillari uchun o'zga millatning urf-odatlari, an'analari, tarixiy obidalari, taomlari, mevalari, ishlab chiqaradigan mahsulotlari, ekinlari qiziqarli;
- 5) ruslarda do'stlik, mehmondo'stlik, oqko'ngillik kabi qadriyatlarga e'tibor kuchli;
- 6) ruslar o'zga millat vakillariga ularning ijtimoiy mavqeyi, mehnat faoliyati orqali baho berishadi;
- 7) ruslarda millatni yashash hududi va bu hududning iqlimi bilan bog'lash xususiyati mavjud.

Xulosa qilish mumkinki, assotsiasiyalar va ular vositasida hosil qilingan muayyan bir obyektning assotsiativ portretida til egalarining jamoaviy ongi, milliy tafakkuriga xos xususiyatlar aks etadi. Shu jihatdan, har qanday obyektning inson assotsiatsiyalari majmuyidan iborat assotsiativ portreti milliy-madaniy xoslanish xususiyatiga ega bo'ladi.